



# O`ZBEKISTONDA SUG`URTA BOZORINING RIVOJLANISH

## KO`RSATKICHLARI VA AHOLIGA XIZMAT KO`RSATISHDAGI O`RNI

*Jarilkapova Naubaxar Paraxat qizi*

*Qoraqalpoq davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti 4-kurs moliya va  
moliyaviy texnologiyalar ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada O`zbekiston sug`urta bozorining oxirgi yillardagi rivojlanish ko`rsatkichlari tahlil qilinadi. Sug`urta bozorining moliyaviy ko`rsatkichlari, segmentlari va asosiy ishtirokchilari o`rganilib, bozor dinamikasi va o'sish tendensiyalari ko`rsatib beriladi. Shuningdek, sug`urta xizmatlarining aholiga taqdim etilishi va ularning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati o`rganiladi. Maqolada aholining sug`urta xizmatlariga bo`lgan ehtiyoji, ishonch darajasi hamda sug`urta tizimini rivojlantirish uchun taklif va tavsiyalar beriladi. Tadqiqot O`zbekiston sug`urta bozorining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi.

**Kalit so'zlar:** Sug`urta bozori, rivojlanish ko`rsatkichlari, sug`urta xizmatlari, aholiga xizmat ko`rsatish, moliyaviy barqarorlik, sug`urta segmentlari, O`zbekiston iqtisodiyoti, sug`urta kompaniyalari

O`zbekistonning kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini belgilash va xalqimizga farovon turmush tarzini shakllantirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17 fevraldagagi farmoni bilan “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi” tasdiqlandi. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz bosib o`tgan taraqqiyot yo`lining chuqur tahlili, jahon bozori kon'yunkturasi keskin o`zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro`yobga chiqarishni taqozo etmoqda. Shularni e'tiborga olgan holda, Harakatlar strategiyasining uchinchi yo`nalishida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishda bir necha



vazifalar belgilanib olindi. Shulardan biri sug`urta va lizing hamda boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobidan kengaytirish, shuningdek, kapitalni jalg qilish hamda moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirishdir. Yana shuni ta'kidlash joizki, kapitallarni jalg qilish hamda moliyaviy institutlar va aholining erkin mablag`larini joylashtirishning muqobil manbai sifatida moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan O`zbekiston Respublikasi moliya bozorini o`rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish kontseptsiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Moliya bozori kontseptsiyasini yaratish va bu bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasida aks ettirilgan rejalaridan biri sug`urta va boshqa moliyaviy xizmatlarning yangi shakllarini joriy qilish va boshqa turdag'i moliyaviy xizmatlarning hajmini kengaytirishdir<sup>1</sup>.

Sug`urta bozirini shakllantirish va rivojlantirishda muammolar bo`yicha Rossiya va O`zbekiston olimlari tomonidan ko`plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Shunday ilmiy izlanishlarning natijasi sifatida quyidagilarni ta'kidlab o'tish mumkin: - Sug`urta bozorini rivojlantirishda reklama va marketing xizmatlaridan yuqori darajada foydalanishda ijobiy natija berishi to`g`risida Rossiyalik iqtisodchi A.Gvozdenko, V.V. Shaxov<sup>2</sup> o`zlarining hulosa va takliflarini berib o`tgani<sup>3</sup>. - O`zbekistonda sug`urta bozorini rivojlantirishda xukumatimiz tomonidan qabul qilingan qonun va qarorlarning o`rni muhim ahamiyat kasb etishi to`g`risida hamda reklama va marketingni keng yo`lga qo`yish borasida chet el tajribasidan foydalangan holda mintalitetimizga to`g`ri keladigan reklama va marketing xizmatlarini taklif etish bo`yicha X.I.Boyev<sup>4</sup> va X.Shennayev<sup>5</sup> ilmiy izlanishlar olib borganlar va o`zlarining e`lon qilgan ilmiy monografiyalari, darsliklari, o`quv –

<sup>1</sup> 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Харакатлар стратегиясини “Халқ билан мулоқот ва инсон мафаатлари йили” да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича илмий –услубий кўлланма. Тошкент-2017

<sup>2</sup> Шахов.В.В Страхование. Учебник для вузов. М “ЮНИТИ”, 2001

<sup>3</sup> Гвозденко А.А Основы страхования: Учебник.–М.;Финансы статистика 2003.

<sup>4</sup> Боев Х.И. “Сугурталаш” “Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти”, Тошкент-2005

<sup>5</sup> Шеннаев Х. Ўзбекистон сугурта бозори. – Т.: “Иқтисод-Молия” 2013.



qo'llanma, ilmiy maqolalarida bu bo'yicha keltirib o'tishgan. - Sug'urta bozorini rivojlantirishda sug'urta operatsiyalarining tamoyillari, sug'urtaning nazariy masalalari, sug'urta moliyaviy-iqtisodiy va huquqiy jihatlari hamda sug'urta xizmalarining sifati va ahamiyati haqida X.M.Shennayev, I.K.Ochilov, S.E.Shirinov o'zlarining o'quv qo'llanmalarida keltirib o'tishgan<sup>6</sup>.

Mamlakat hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan sug'urta faoliyatini tartibga solish siyosati sug'urta bozorini izchil rivojlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratib, uning taraqqiy etishida yaratuvchanlik jarayonlarining yuqori darajasini ta'minlamoqda.

Sug'urta sohasida davlat siyosatining maqsadi sug'urta hodisalari sodir bo'lganda fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning mulkiy manfaatlarini samarali himoya qilish imkoniga ega sug'urta tizimini shakllantirishdir.

Sug'urta sohasida davlat siyosatining vazifasi sug'urta faoliyatining qonunchilik asoslarini, uni nazorat qilish shakllari va uslublarini shakllantirish va takomillashtirish hisoblanadi. Ushbu vazifa "Sug'urtachilarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 31.11.2011 yil 1544- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va "Sug'urta xizmatlar bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 21.05.2008 yil 872-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi asosida amalga oshiriladi. 2016 yilda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta nazorati davlat inspeksiysi tomonidan sug'urta faoliyatiga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish va sug'urta bozorini rivojlantirish bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda.

O'zbekiston sug'urta bozori kun sayin o'sib kelmoqda. Shunday bo'lsada, mamlakatimiz aholisining hammasida ham sug'urtaga bo'lgan ishonch va tushuncha to'liq shakllanmagan. Bunga sabab sug'urta faoliyati haqidagi ma'lumotlar Respublikamizning aksariyat joylariga bormayotganligi va rivojlanmaganidir. Bu esa sug'urta faoliyatining rivojlanishi YaIM dagi ulushining o'sishiga hamda

<sup>6</sup> Шеннаев Х.М., Очилов И.К., Ширинов С.Е., Кенжаев И.Ф. Суѓурта иши. Тафаккур бўстони. - Тошкент-2014



sug`urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi oshishiga salbiy ta'sir ko`rsatadi. Sug`urta faoliyatidan asosan Respublikamizda Toshkent shahrida istiqomat qiladigan aholi keng foydalanmoqda. Boshqa viloyatlarda bu ko`rsatkich bir muncha pastroq. Buning isbotini biz 3-jadval bo`yicha ko`rib chiqdik. Buning sababi sug`urta faoliyati to`g`risidagi ma'lumotlar, uning afzalliklari haqida tushuncha boshqa Respublikamizning aksariyat viloyatlarida shakllanmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quydagi takliflarni bildirib o`tmoqchiman:

- Hozirda eng ommabob bo`lgan ijtimoiy tarmoqlar: telegram, instagram va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda sug`urta xizmatlari va uning avzalliklari haqida ma'lumot berib turish. Misol uchun sug`urta xizmatlari bo`yicha telegramda bir kanal ochib, bu haqida boshqa kanallarga ma'lumot tashlash orqali, aholini sug`urta kanaliga a'zo qilish va sug`urta faoliyatining yangiliklaridan muntazam ravishda xabardor qilib turish.

- sug`urta kompaniyalari bozordagi iste'molchilar aynan qaysi sug`urta mahsulotiga talab yuqorilagini aniqlash va shunga qarab bozorga innovatsion mahsulotlar chiqarish;

- aholining sug`urtaga bo`lgan ishonchini ortishini ta'minlash maqsadida sug`urtaga nisbatan aholining huquqiy savodxonligini oshirish, ya'ni sug`urta to`g`risida qabul qilingan qonun, qarorlar to`g`risida va sug`urta faoliyati qonun bilan himoyalanishi to`g`risida mijozlarga muntazam ravishda ma'lumotlar berish.

O'zbekiston sug`urta bozori so'nggi yillarda sezilarli rivojlanish ko`rsatkichlariga erishmoqda. Bozor segmentlari kengayib, sug`urta xizmatlarining turi va sifati oshib bormoqda. Aholiga sug`urta xizmatlarini taqdim etishdagi faoliyat, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sug`urta tizimining samarali ishlashi aholining moliyaviy xavfsizligini mustahkamlashga, shuningdek, iqtisodiyotning boshqa sohalariga ham ijobjiy ta'sir ko`rsatadi. Shu bilan birga, sug`urta bozori rivojini yanada jadallashtirish uchun yangi texnologiyalarni joriy etish, aholi ongini oshirish va investitsiyalarni ko`paytirish zarur. Kelajakda sug`urta xizmatlarining kengaytirilishi va sifatining



yaxshilanishi orqali O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror va sog‘lom rivojlanishiga xizmat qilishi kutilmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Sug‘urta va moliya bozorini tartibga solish qo‘mitasi yillik hisobotlari, 2020–2024.
2. Abdullayev, R. (2022). O‘zbekistonda sug‘urta bozori: rivojlanish va istiqbollar. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
3. Milliy Bank (2023). O‘zbekiston moliya bozorining rivojlanish tahlili.
4. Karimov, I. (2021). “Sug‘urta xizmatlari va aholiga ta’siri”, Iqtisodiyot va Jamiaty jurnali, №5.
5. UNCTAD (2023). World Insurance Report.
6. Rasulov, D. (2020). “Sug‘urta bozori va molivayiy barqarorlik”, Moliya va Kredit, №4.
7. OECD (2022). Insurance Market Development in Emerging Economies.
8. Xalqaro Sug‘urta Assotsiatsiyasi (2023). Sug‘urta bozorining global tendensiyalari.